



## ALISHER NAVOIYNING IJODIDA FOLKLOR AN'ANALARI VA TIMSOLLAR TALQINI

**Polvonova Baxtigul Bobir qizi**

*G'azal tahliliga bag'ishlangan yoki A.Navoiy haqidami  
Jondor tumani 2-son kasb hunar maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada buyuk mutafakkir olim, she'riyat mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiy ijodida folklore ananalardan foydalanish va unign timsollari talqini haqida fikr-mulohazalar yurutilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijod, folklor, qiyosiy timsol, she'riyat, adabiyot, turkiy til.*

Alisher Navoiy epik asarlarining deyarli barchasida adabiy asarlari jumladan Maxbubul-qulub, Muhokamatul-lug'attayn, Tarixi Muluki Ajam, Tarixi Anbiyo va Hukamo, singari asarlarida bir qator hikoyalarga duch kelinib hikoyachilik turkiy adabiyotning bir yo'nalishi sifatida qaror topganiga ishonch uyg'otdi. Shubhasiz bu hikoyatlarining yuzaga kelishida xalq ijodidagi afsona, asotir, rivoyat, qissa va boshqa janrdagi asarlarning alohida o'rni borligi kuzatildi.

Alisher Navoiy asarlaridagi ko'pchilik hikoyatlari ular qaysi manba asosida ishlangan bo'lishiga qaramay g'aroyib badiiy hususiyatlari bilan xalq hikoyatlariga uyg'unlashib ketadi. Anushirvoni odil sharq xalqlari adabiyotida keng o'rin olgan an'anaviy obrazlardan biridir. Anushirvon (531-589) sosaniy shaharlarida bo'lib shon shavkati bilan shuhrat qozongan edi. Tarix zaminida adabiyot olimiga o'tgan Anushirvon yarim tarixiy, yarim afsonaviy qaxramon tusini olib odillikning ramzi sifatida talqin qilinadi. U haqidagi hikoyatlar "Hayratul abror" va "Tarixi muluki Ajam" asarlaridan ham o'rin olgan.

"Tarixi muluki Ajam"dagi hikoyalarning birida bog' sotgan va bog' olgan kishilar o'rtasidagi muammoli holatning Anushirvon tomonidan aql va zakovat odillik bilan hal etilishi ko'rsatilsa, ikkinchi hikoyada Anushirvon insof va adolatning homiysi sifatida gavdalanadi.

Bu hikoyatlar ko'pdan -ko'p xalq ertaklaridagi "Bir bor ekan, bir yo'q ekan qadim zamonda bir odil podsho bo'lar ekan" deb boshlanuvchi an'anaviy syujet va obrazlarini eslatadi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan folklor ildiziga bog'landi.

Shunidek adibning "Lisonut-tayr" dostonidagi hikoyalar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Dostonda 63 hikoyat jamlangan bo'lib bu hikoyatlarining ko'pchiligi xalq ijodi tasirida vujudga kelgan shu nuqtai nazardan qaraganda "Lisonut-tayr"dagi "Majnunul xalq" hikoyalari xalq latifalari uslubida yaratilgani bilan ajralib turadi. Bu hikoyatda o'zini xudo yo'lga bag'ishlagan devonaning sarguzashtlari xazilnoma usulida hikoya qilinadi. Ushbu hikoyaga asos bo'lgan syujetning boshqacha varianti shu kunga qadar ham xalq latifasi sifatida yashab kelmoqda.

Faoliyat jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazku maqolada Navoiy hikoyatlari shakllanishida



folklarning o'rnini va uning bugungi kundagi xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi. Alisher Navoiyning "Xamsa" va boshqa asarlari metodologik manba bo'lib belgilandi. Shu bilan birga Sh.M. Mirziyoyevning asarlaridan keng foydalanildi.

### **Muhokama va natijalar:**

Ulug' adib hikoyatlarining xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligi haqida so'z borar ekan, albatta, Luqmon obrazi bilan bog'liq bo'lgan hikoya, hikmatlarning ildizlari juda qadim zamonlarga borib talishini unutilib bo'lmaydi. Bu hikoyatlarda Luqmon eng murakkab mushkullotlarning ham o'tkir aqilli tadbiri bilan xalq qiluvchi donishmand, so'zamol va xozirjavob qaxramon sifatida talqin qilinadi.

"Tarixi anbiyo va hukamo"da Luqmon haqida bir necha hikoyat keltirilgan bo'lib ular hajman ixcham, mo'jaz, lekin ibratli ma'no olam-olam. Mana shulardan biri: "Xojasi anga buyurdikim, qo'y o'lturub, yaxshiroq uzvini pishurib keltir. Ul yurokni tili bila pishurib kelturdi. Yana bir qotla dedikim, qo'y o'lturib, yamonroq uzvini pishurib keltur! Xamul iki uzvdin kelturdi. Xoja nuktasin so'rdi yersa, dedikim ko'ngul noshoyista af'oldin va til naboyista aqvodin beri bo'lsa, alardin yaxshiroq uzv yo'qtur, va agar bo'lmasa, alardin yamonroq uzv yo'qtur". Bu ibratli hikoya sharqning juda ko'p allomalari asarlaridan o'rin olgan.

Navoiy ko'p asarlarida, jumladan "Qissasi Rabg'uziy"dan o'rin olgan Luqmon haqidagi yana bir hikoyatni bayon etadi: "Yana biri bukim, xojasi anga buyurdikim, kunjut ek! Ul arpa ekdi. Xoja so'rdikim, arpa ekib bar kunjut najuk toparsan? Dedikim, chun sen nosiyishta ish qilib, tangri taolodin rahm va jannat tama' qulursen, men ham dedikim, shoyadki arpa eksang, kunjut bar topgaymen, xoja mutanqabix bo'lib, ani ozod qildi". Bu hikoyatda Luqmon zulm zo'rlikni achchiq kulgi bilan fosh etuvchi xalq qahramoni- Afandi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy hikoyatlarida Luqmon Hakim va donishmand sifatida gavdalanadi.

O'zbek xalq hikoyati va ertaklarida ham Luqmon tabib va donishmand qiyofasida namoyon bo'ladi. U halqqa shu darajada yaqin bo'lib ketganki, xalq ko'pincha o'z bilimi, tajribasi va tadbirlarini Luqmon timsolida mujassamlashtiradi. Masalan, "*Luqmon Hakim*" ertagida xalq tabobatida turli usullar va dori darmonlar Luqmon bilan bog'lab beriladi. Ertakda Luqmon Iskandarga zamondosh kishi sifatida tasvirlangan. Navoiy asarlaridan o'rin olgan deyarli barcha hikoyalar syujeti va kompozitsiyasi, obrazlari va uslubi jihatdan xalq ijodiga, xalq masallariga monandir. Chunki Navoiy ijodida qadimgi mifologiya va afsonalar chuqur iz qoldirgan. Alisher Navoiy mif va afsonalar bilan turli manbalar bilan tanish edi. Bu manbalar tarix kitoblari, ilmiy asarlar, badiiy adabiyot, diniy kitoblar va boshqalardan iboratdir. Alisher Navoiy mif va afsonalar bilan bevosita tanish bo'lishida ayniqsa "*Shohnoma*", alohida o'rin tutadi, Chunki "*Shohnoma*"ning asosini xalq mifologiyasi, xalq og'zaki ijodi tashkil etadi.

Qadimgi mifologiyaning asosini yaxshilik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurashlar tashkil etadi. Yovuzlik miflari qahramonlari Sharq xalqlari, ko'pincha dev, ajdar, jin va boshqalar qiyofasida namoyon bo'ladi. Mana shu miflar xalq og'zaki





ijodida qayta-qayta ishlanib, asrlardan asrlarga o'tib kelayotgani kabi, yozma adabiyotda ham chuqur iz qoldirgan.

Bunday miqlar Alisher Navoiy ijodidan ham o'rin olgan. Uning asarlarida dev, ajdar, ya'juj-ma'juj kabi yovuz mifologik obrazlarni kuzatish mumkin. Bular ofat va zulmat, qabohat va razolat, o'lim va kulfatning timsoli sifatida gavdalanadilar. Shoir bu obrazlardan aniq g'oyaviy-estetik maqsad yo'lida, zamonasining voqea va muammolari haqida fikr-mulohaza yuritganda foydalanadi.

Alisher Navoiy asarlarida ko'p uchraydigan mifologik obrazlardan biri dev bo'lib, u hayot va kishilar, voqea va hodisalar, fikr-o'ylar to'qnashuvida ma'lum o'rin egallaydi. Lirikada shoir fikr va kechinmalarini bayon etishda devdan an'anaviy obraz sifatida foydalansa, epik asarlarida syujet va kompazisiyada, voqealar rivojida foydalanadi.

Navoiy Sayid Xasan Ardasheriga yozgan mashhur maktubida yashagan muhitidan shikoyat qilib, uning "eli" – munofiq kishilarni shayton va devga o'xshatadi:

*Ne el, ne kishi, balki shaytonu dev,  
Kelib barcha da'b bedodu rev.*

Makr-hiyla, an'anaga muvofiq shaytonga, zulm va bedodlik devga xosdir. Ma'lumki, Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatining Astrabod davri xiyla murakkab va shoir uchun ko'ngilsiz voqealarga to'la bir bosqichdir.

"Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" dostonlarida dev mifik-epik obraz bo'lib, u ijobiy qahramonlarning ezgu intilishi va kurashlari yo'lida to'g'onoq yovuzlikning timsoli sifatida tasvirlangan. Navoiy tasviridagi devlar makoni-maskani, tashqi qiyofasi, kuch-quvvati, sehr mo'jizasi va boshqa jihatlari bilan xalq doston va ertaklarida dev tasvirida ham mushtarak jihatlari borligi ko'zga tashlanadi.

*To'rt oyoqli, ikki boshli bachchag'ar,  
Turqiga qarasang, misli ajdahor,  
Olov qip sochadi og'zidan zahar,  
Har siltanib yetmish qadam yo'l bosar,*

#### **Xulosa:**

Og'zaki va yozma adabiyotda dev tasviridagi mushtaraklik asosan fantastik tasvir, mubolag'a va yumorda majoziy obraz zamirida hayotiy maqsadda ifodalanadi. Alisher Navoiy asarlarida yovuzlikning timsoli bo'lgan obrazlardan yana biri ajdardir. "Farhod va Shirin" dostonida Farhod va ajdarhoning jangiga butun bir bob bag'ishlangan. Fol'klorshunoslikni o'rganishda Navoiy hikoyatlarida keltirilgan fol'klor usullari zamonaviy adabiyotni rivojlanishiga mustahkam ko'prik bo'la oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. Toshkent, 1983. 5-bet.
2. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. Toshkent, 1961.



3. Mallayev N. O'zbek adabiyotida g'azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1971-yil. 3-son.